



ZAMONAVIY TA'LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muxtarova Z. A.

Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti.

Turayeva D. R.

Toshkent shahridagi Puchon universiteti dotsenti, PhD.

Annotatsiya:

Mazkur tezisda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishning zamonaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim tashkilotlarida liderlik tamoyillari, boshqaruv uslublari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, ta'lim boshqaruvi, raqamli iqtisodiyot, innovatsion yondashuvlar, pedagogik menejment, boshqaruv uslublari.

KIRISH

Ta'lim muassasalarini boshqarishda zamonaviy talablar, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish jarayoni dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va ta'lim sifatini oshirish zaruriyati ortib bormoqda. Ta'lim sohasida globalizatsiya jarayonlari xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimini shakllantirishni talab qiladi. Shaxsiylashtirilgan ta'lim, inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etish, o'qituvchilar malakasini oshirish va ta'lim jarayonida jamoaviy hamkorlikni kuchaytirish ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ta'lim sohasidagi islohotlari ham maktabgacha ta'limni takomillashtirishga qaratilgan. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (PF-60-son farmon) , “Ilk qadam” takomillashtirilgan davlat o'quv dasturi (2022) va 2030-yilgacha mo'ljallangan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi (PQ-4312-son qaror) ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim tashabbuslardir.



Shuningdek, Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti (802-son qaror, 2020) maktabgacha ta'lim muassasalarining boshqaruv samaradorligini oshirish va ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'lida muhim hujjatlar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy ta'lim tashkilotlarini boshqarish bo'yicha tadqiqotlar rahbarlik tamoyillari, ta'lim jarayonini takomillashtirish va innovatsion boshqaruv modellarini joriy etishga qaratilgan. Xorijiy olimlarning izlanishlari ushbu jarayonlarni chuqur tahlil qilish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi uslublarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Peter Senge tomonidan ilgari surilgan "O'rganayotgan tashkilot" konsepsiyasi ta'lim muassasalarining uzluksiz rivojlanishi va innovatsiyalarga moslashuvchanligini ta'minlashga qaratilgan. Michael Fullan esa rahbarlarning ta'lim muassasalarida islohotlarni samarali amalga oshirishdagi rolini yoritadi. Henri Mintzberg boshqaruv uslublarning samaradorligini tadqiq qilgan bo'lsa, Viviane Robinson ta'lim jarayonining sifatini oshirishda liderlikning ahamiyatini ko'rsatgan.

Hargreaves va Shirley tomonidan ishlab chiqilgan "The Fourth Way" strategik rejalashtirish va global tendensiyalarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Chuvatkin P.P. va Materikina A.Ye. esa ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodologiyalarni taklif etgan. Oshurkova A.V. va I.U. Murakaevlar innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tadqiqot olib borgan.

L.R. Peregud va E.Ye. Starabinskiy rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratgan. T. Baydel rahbarlik uslublari va tashkilot samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish yo'nalishlarida tadqiqot olib borgan. Deyl Karnegi xodimlar bilan samarali muloqot o'rnatish va motivatsiyani oshirish bo'yicha tadqiqotlari bilan mashhur.

Rus psixologlari S.L. Rubinstein va A.N. Leontiev rahbarlarning psixologik barqarorligi va xodimlarning motivatsiyasini oshirish bo'yicha tadqiqot olib borgan. Ushbu tadqiqotlarning barchasi zamonaviy ta'lim tashkilotlarini boshqarishning samaradorligini oshirish, rahbarlik kompetensiyalarini shakllantirish va ta'lim



tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish jarayonlariga muhim hissa qo'shadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning izlanishlari ta'lim boshqaruvida samarali yondashuvlarni ishlab chiqish va rahbarlarning boshqaruv ko'nikmalarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda zamonaviy ta'lim tashkilotlarini boshqarishning samaradorligini tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot davomida boshqaruv jarayonlarining hozirgi holati diagnostika qilindi, mavjud muammolar aniqlandi hamda boshqaruv uslublarining samaradorligi baholandi. Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent shahrining Mirobod tumanidagi 34-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda "Mega Child" xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari tanlandi. Ushbu muassasalarda rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar, boshqaruvning samaradorligini ta'minlash uchun yaratilgan pedagogik va psixologik shart-sharoitlar o'rganildi.

Tadqiqot doirasida sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlari birgalikda ishlatilib, nazariy va empirik manbalar asosida tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy jihatida ta'lim boshqaruvi, innovatsion yondashuvlar va rahbarlik tamoyillariga oid ilmiy adabiyotlar chuqur o'rganildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari, ilmiy maqolalar va rasmiy hujjatlar asosida ta'lim muassasalarini boshqarishning asosiy xususiyatlari tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot doirasida Toshkent shahridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida amaliy tajribalar o'rganildi. Empirik tadqiqot davomida quyidagi usullar qo'llanildi: Sotsiometrik usullar: Rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni baholash, boshqaruv uslublarining samaradorligini o'lchash uchun test va anketa so'rovnomalari o'tkazildi.

Intervyular: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari va pedagoglari bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar olib borilib, boshqaruv tizimining real muammolari va imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Pedagogik kuzatish: Tashkilotlardagi boshqaruv jarayonlarini bevosita kuzatish orqali rahbarlikning ta'lim sifati va xodimlar motivatsiyasiga ta'siri baholandi.



Tajriba-sinov o'tkazish: Rahbarlik uslublarining samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion boshqaruv modellarining amaliyotda sinovdan o'tkazilishi tadqiq etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirish maqsadida statistik tahlil usuli qo'llanildi. Statistik tahlil usullari yordamida so'rov va intervyular natijalari qayta ishlanib, ularning xulosalari chiqarildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning ob'ektiv va aniq natijalarga erishishini ta'minladi hamda zamonaviy ta'lim tashkilotlarini boshqarishning samaradorligini baholashga yordam berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruvning samaradorligi rahbarlik uslublariga, xodimlarning psixologik qo'llab-quvvatlanish darajasiga va tashkilot ichki muhitiga bog'liq. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy jihatlarni aniqlash imkonini berdi:

1. Boshqaruv samaradorligi va rahbarlik uslublari: So'rovnoma natijalariga ko'ra, transformatsion liderlik uslubini qo'llagan rahbarlarning muassasalarida xodimlar motivatsiyasi va qoniqish darajasi yuqori bo'ldi. Avtoritar boshqaruv uslubining ustun bo'lgan muassasalarda esa xodimlarning faol ishtiroki va tashabbuskorligi past bo'lishi aniqlandi.
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimining muammolari: Tadqiqot natijalariga ko'ra, eng muhim muammolar rahbarlar va xodimlar o'rtasidagi kommunikatsiya yetishmovchiligi, pedagoglarning professional rivojlanishi uchun yetarli imkoniyatlarning yo'qligi hamda innovatsion boshqaruv modellarining kam qo'llanilishidan iborat.
3. Innovatsion boshqaruv modellarining samaradorligi: Eksperimental maktabgacha ta'lim muassasalarida yangi boshqaruv uslublari sinovdan o'tkazildi. Xususan, xodimlarning boshqaruv jarayoniga faol jalb etilishi ularning mehnat samaradorligini oshirishiga xizmat qildi. Shuningdek, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish natijasida ta'lim jarayonining shaffofligi va samaradorligi oshdi.
4. Tashkilot ichki muhitining ahamiyati: Pedagogik kuzatish natijalariga ko'ra, ijobiy psixologik muhit xodimlarning kasbiy o'sishi va ishga bo'lgan



motivatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Stress va ishonchsizlik muhitida faoliyat yurituvchi xodimlarning samaradorligi past bo'lishi aniqlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini yanada takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, rahbarlik yondashuvlarining samaradorligini oshirish, innovatsion boshqaruv usullarini tatbiq etish va xodimlarning kasbiy o'sishini rag'batlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkinligi aniqlangan.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini optimallashtirishning zarurligini tasdiqlaydi. O'tkazilgan empirik tadqiqotlar natijasida ta'lim muassasalarida rahbarlik yondashuvlarining samaradorligi o'rganilib, ularning pedagogik jarayonga ta'siri tahlil qilindi.

So'rovnomalar va intervyular natijasida aniqlanishicha, transformatsion rahbarlik modeli maktabgacha ta'lim muassasalarida eng samarali uslub sifatida baholandi. Bu yondashuv pedagoglarning motivatsiyasini oshirish, ularning tashabbuskorligini rag'batlantirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Avtoritar rahbarlik modeli esa xodimlar faolligini pasaytirishi va innovatsion faoliyatni cheklashi mumkinligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbar va pedagoglar o'rtasidagi samarali kommunikatsiya ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Rasmiy hamkorlik bilan bir qatorda norasmiy muloqotning mavjudligi xodimlarning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishi va ish samaradorligini oshirishiga yordam beradi.

Boshqaruvning innovatsion uslublarini joriy etish jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Ta'lim muassasalarida axborot tizimlarini tatbiq etish, hujjat aylanishi va ma'lumotlarni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish boshqaruv tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi.



XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim jihatlari ochib berdi. Boshqaruv jarayonining to'g'ri tashkil etilishi ta'lim sifatini oshirishga hamda pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Transformatsion rahbarlik modelini keng joriy etish – Ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarni qo'llash va pedagoglarni boshqaruv jarayoniga faol jalb etish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.
2. Rahbar va xodimlar o'rtasidagi kommunikatsiyani kuchaytirish – Muloqotning ochiqligi va konstruktiv tahlil madaniyatini shakllantirish xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.
3. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga investitsiya kiritish – O'qituvchilar va tarbiyachilar uchun doimiy malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglarni tashkil etish ta'lim jarayonining sifatini oshirishga imkon yaratadi.
4. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish – Elektron hujjat aylanish tizimi, ta'lim menejment platformalari va raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish boshqaruv jarayonlarini soddalashtiradi va samaradorlikni oshiradi.
5. Psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish – Rahbarlar va pedagoglar uchun stressni kamaytirish va motivatsiyani oshirishga qaratilgan psixologik treninglar va maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish lozim.
6. Tashkilot ichki muhitini ijobiylashtirish – Boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish bilan bir qatorda, xodimlarning ishonch va qo'llab-quvvatlash muhitida ishlashini ta'minlash zarur.
7. Tajriba-sinov asosida boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish – Boshqaruvning turli modellarini amaliyotga joriy etish va ularning samaradorligini baholash orqali eng yaxshi tajribalarni tanlash va qo'llash lozim.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish uchun rahbarlarning strategik yondashuvi, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va inson resurslarini to'g'ri boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari kelajakda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va boshqaruv jarayonlarini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd May, 2025

olib borish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga hamda ta'lim muassasalarida innovatsion boshqaruv modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022- 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-4312- son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 2020 yil 22-dekabrdagi 802-son qaror
4. "Ilk qadam" Takomillashtirilgan Davlat o'quv dasturi". Toshkent 2022-yil
5. Barkley, R. A. (2015). Attention-deficit hyperactivity disorder: A handbook for diagnosis and treatment. Guilford Publications.